ONLINE JOURNAL
E-ISSN:3060-5490

INSTITUTE OF UZBEK NATIONAL
MUSICAL ART NAMED AFTER YUNUS RAJABI

Milliy Madaniyat Jurnali - Журнал Национальной Культуры

Journal of national CULTURE

Received: 19.06.2026 · Accepted: 07.09.2026 · Published: 30.09.2026
DOI: https://doi.org/10.64681/zatcq557

ilmiy uslubiy jurnali – научно-методический журнал – research and methodological journal

Institute of Uzbek National Musical Art named after Yunus Rajabi
JOURNAL OF NATIONAL CULTURE, 2 (3), 2026
www.jnculture.uz

Dugoh maqomining zamonaviy kompozitorlik tafakkuridagi transformatsiyasi

(The Transformation of the Dugoh Maqam
in Contemporary Compositional Thinking)

Dilbar Fakhridinova

Department of Scientific Research, Composer,
The Institute of National Variety Art named after Batyr Zakirov,
100027, Batyr Zakirov, 1.
Uzbekistan/Tashkent
E-mail: dilbarfakhridinova@gmail.com

Annotatsiya

O‘zbek milliy maqom san’ati ko‘p asrlik musiqiy merosning yuksak namunasidir. Bugungi kunda, zamonaviy kompozitorlik amaliyotida maqom merosidan foydalanish jarayoni an’anaviy musiqiy asarlarning zamonaviy kompozitorlik tafakkuri asosida qayta talqin qilinishi hamda transformatsiyalanishi bilan ahamiyatlidir.

Maqolada musiqiy materialning bir holatdan boshqa holatga o‘zgarish jarayoni, ya’ni, ikki holat o‘rtasidagi strukturaviy va funksional munosabatlarning saqlanishi yoki qayta talqin etilishi transformatsiya tushunchasi yordamida tavsiflanadi. Tadqiqotda transformatsiya tushunchasining nazariy-metodologik asoslari hamda uning musiqiy materialni qayta talqin qilish jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Shu nuqtai nazardan, Shashmaqomning Dugoh maqomi asosida yaratilgan besh qismli Concerto grosso asari transformatsiya jarayonining amaliy namunasi sifatida tahlil qilinadi.

Tahlil jarayonida mazkur asarning har bir qismida an’anaviy maqom materialining turli cholg‘ular, ijrochilik uslublari va kompozitorlik texnikalari vositasida yangi badiiy kompozitsion muhitga moslashtirilishi ko‘rib chiqiladi. Xususan, tembr va ritmik transformatsiya, fakturaviy qayta tashkil etish hamda politematik rivojlanish jarayonlariga e’tibor qaratiladi.

Tadqiqot natijasida maqom materialining aynan takrorlanmasdan, uning muayyan strukturaviy va intonatsion xususiyatlarini saqlagan holda yangi funksional va badiiy holatga o‘tkazilishi zamonaviy kompozitorlik tafakkurining muhim ko‘rinishi ekanligini asoslab beradi.

Kalit so‘zlar: Shashmaqom, Dugoh, transformatsiya, jarayon, maqom, Concerto grosso, kompozitor, tafakkur, talqin.

Abstract

The uzbek national maqam art represents a significant achievement of the country’s centuries-old musical heritage. Today, the use of maqam heritage in contemporary compositional practice is characterized by the reinterpretation and transformation of traditional musical material within the framework of contemporary compositional thinking.

This article employs the concept of transformation to denote the process through which musical material undergoes a transition from one state to another, while the structural and functional relationships between these states are either preserved or reinterpreted. The study examines the theoretical and methodological foundations of the concept of transformation and its significance in the process of reinterpreting musical material. From this perspective, the five-movement Concerto grosso, based on the Dugoh maqam of Shashmaqam, is analyzed as a practical example of the transformation process.

The analysis considers how traditional maqam material in each movement is adapted to a new artistic and compositional context through the use of different instruments, performance techniques, and compositional methods. Particular attention is given to timbre and rhythmic transformation, textural reorganization, and processes of polythematic development.

Keywords: Shashmaqam, Dugoh, transformation, process, maqam, Concerto grosso, composer, thinking, interpretation.

Аннотация

Узбекское национальное искусство макома является выдающимся образцом многовекового музыкального наследия. В настоящее время в практике современного композиторского творчества процесс использования наследия макома приобретает особое значение в связи с переосмыслением и трансформацией традиционного музыкального материала на основе современного композиторского мышления.

В статье процесс изменения музыкального материала из одного состояния в другое, то есть сохранение или переосмысление структурных и функциональных взаимосвязей между двумя состояниями, рассматривается посредством понятия трансформации. В исследовании освещаются теоретико-методологические основы понятия трансформации, а также его значение в процессе переосмысления музыкального материала. В этом контексте пяти частное сочинение Кончерто гроссо, созданное на основе макама Дугох из цикла Шашмакам, анализируется как практический пример трансформационного процесса.

В ходе анализа рассматривается процесс адаптации традиционного макомного материала в каждом разделе произведения к новой художественно-

композиционной среде посредством использования различных инструментов, исполнительских приёмов и композиторских техник. Особое внимание уделяется тембровой и ритмической трансформации, фактурной реорганизации, а также процессам политематического развития.

Результаты исследования обосновывают, что обращение к макомному материалу в современной композиции не сводится к его непосредственному повторению, а предполагает его перевод в новое функциональное и художественное состояние при сохранении определённых структурных и интонационных характеристик. Данный процесс является важным проявлением современного композиторского мышления.

Ключевые слова: Шашмаком, Дугох, трансформация, процесс, маком, Кончерто гроссо, композитор, мышление, интерпретация.

«Holu xating hayolidin, ey sarvi gul uzor,
Gahi kozumga xol tushubdur, gahi g‘ubor».
Navoiy

Xalqimiz madaniy merosining salohiyatli qatlami sanalmish milliy maqom san’ati o‘zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari va boy ijodiy an’analari bilan ma’naviy hayotimizda muhim o‘rin egallaydi. Maqom an’analarini asrab-avaylash, uni zamonaviy kompozitorlik tafakkuri doirasida qayta anglash va yangi badiiy shakllarda namoyon etish esa bugungi zamonaviy kompozitorlik maktabining oldida turgan muhim vazifa va yo‘nalishlaridandir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 3391-son Qarorining «Mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish», «2018-2019 o‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, madaniyat va san’at kollejlari, ixtisoslashgan musiqa akademik litseylari, bolalar musiqa va san’at maktablarida milliy maqomlarni tizimli ravishda o‘quv dasturiga kiritish» [1] bandlari joriy etilishi, jahon hamjamiyatining mumtoz san’atga bo‘lgan ijtimoiy e’tiborini yanada orttirishi barobarida, yurtimizda maqom an’analariga asoslangan yangi musiqiy asarlarning yaratilishi uchun ham muhim asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Darhaqiqat, maqom asrlar davomida shakllanib kelayotgan, shu jumladan, lad, ritm, usul, shakl kabi tamoyillar hamda ijrochilik xususiyatlar bilan yaxlit mujassamlashtirilgan murakkab musiqiy tizimdir. Bu borada maqomshunos olim Is’hoq Rajabov shunday yozadi: «Maqomlar insonning musiqa haqidagi tushunchalari, musiqiy-estetik qarashlari barkamol bo‘lgan, kishilarning ongi va saviyasi yuksalgan bir davrda yuzaga kelgan. Maqomlar tizimining shakllanishi jahon ilmu-fanining rivojlanishi bilan ham bog‘liq» [2, 50-b].

Ma’lum bo‘lmoqdaki, kompozitorlarning an’ana va yangiliklarni uyg‘unlashtiruvchi ijodi yuqori darajadagi badiiy asarlarni yaratishda asos bo‘ladi. Ijodiy izlanishlar jarayonida kompozitorlar yangi janrlar, shakllar hamda musiqiy ifoda vositalarini topadilar. Elektron texnologiyalarning kompozitorlik ijodiyotiga joriy etilishi ijodkorlar oldida turli imkoniyatlar eshiklarini ochsa ham, milliy qadriyatlarimizga tayanish, maqom va baxshichilik san’atini izchil o‘rganish, ulardan ilhom olish muhimdir [3, 7-b]. Shu bois, zamonaviy kompozitorlik maktabi ijodkorlari tomonidan maqom namunalariga murojaat etilishi, uning kuy yoki intonatsiyalarini shunchaki o‘zlashtirish bilan emas, balki, mazkur tizimning ichki qonuniyatlaridan foydalangan holda, yangi musiqiy til yaratish bilan bog‘liqdir.

Butun Sharqu-G‘arb olamiga «Al-muallim-as-soniy», «Sharq Arastusi» nomlari bilan mashhur alloma Abu Nasr Farobiyning ta’kidlashicha: «Ijodkorlik, asar yaratish tuyg‘usi har bir insonning ma’naviy ehtiyojidir» [4]. Bugungi kunda, mamlakatimizda ko‘plab kompozitorlarning ijodida milliy musiqiy manbalarga murojaat qilish jarayoni ancha faollashgan. Aksariyat hollarda, bunday ijodiy jarayonlar maqomga xos xususiyatlarning dastlabki funksional holatidan yangi kompozitsion muhitga ko‘chirilishi bilan ahamiyatli. Shu sababdan, mazkur jarayonning musiqashunoslik ilmidagi terminologik ifodasi «transformatsiya» tushunchasi asosida ifodalanishi maqsadga muvofiqdir.

Dastlab, transformatsiya tushunchasining nazariy asoslari XX asrning ikkinchi yarmida, xususan, amerikalik kompozitor va musiqashunos David Lewin tadqiqotlarida tizimli shaklga ega bo‘ldi. Olimning «Generalized Musical Intervals and Transformations» asarida transformatsiya tushunchasi matematik munosabatlar asosida izohlangan [5]. Lewinning yondashuvida transformatsiya jarayoni musiqiy materialning qanday o‘zgarganini, qaysi strukturaviy belgilar saqlanganini va yangi holat qanday kompozitsion munosabat asosida yuzaga kelganini aniqlash imkonini beradi. Keyinchalik, mazkur nazariy qarash, musiqiy materialning turli darajadagi – intonatsion, ritmik, melodik, garmonik, polifonik, fakturaviy va tembr o‘zgarishlarini tahlil qilishda muhim metodologik asoslardan biriga aylandi.

Kompozitorlik amaliyotida esa transformatsiya, avvalo, musiqiy materialning rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositadir. Mazkur jarayonda kompozitor mavjud materialni tayyor shaklda takrorlash o‘rniga, uning muayyan belgilarini ajratib oladi va turli kompozitsion texnikalar orqali rivojlantiradi hamda qayta talqin qiladi. Natijada, transformatsiya nafaqat dastlabki materialning ma’lum darajalarda o‘zgarishini, balki, uning yangi asar doirasiga kiritilgandagi funksional maqomini qayta belgilash jarayonini ham ifodalaydi.

Yana bir muhim jihat shundaki, ma’lum bir musiqiy material har bir kompozitorning tafakkurida turlicha transformatsiyalanishi mumkin. Bunday farq, avvalo, kompozitorning individual uslubi, musiqiy materialga munosabati va ijodiy jarayonda unga qanday yondashishida. Albatta, Mirsodiq Tojiyev, Mirhalil Mahmudov, Nuriddin G‘iyosov, Sherzod Sobirov kabi yetuk kompozitorlarning mazkur jarayonda yaratgan musiqiy asarlari yuqorida keltirilgan fikrlarni shak-shubhasiz tasdiqlaydi.

Biroq, transformatsiya jarayoni kompozitorlik tafakkurida qanday kechadi va mazkur jarayonda kompozitorning individual ijodiy tafakkuri orqali mavjud musiqiy materialning qayta anglanishi, rivojlantirilishi va natijada yuzaga keladigan yangi

badiiy-kompozitsion yaxlitlik darajasiga qay tariqa erishiladi? Mazkur sabab yuzasidan, Shashmaqomning Dugoh maqomi asosida yaratilgan besh qismli Concerto grosso [6] asari kompozitor tafakkurida transformatsiya jarayonining milliy musiqiy material asosidagi amaliy ko‘rinishini tahlil qilish uchun muhim namuna sifatida xizmat qiladi.


Mazkur asardagi orkestr tarkib, tembr, dinamika, ijrochilik uslublari hamda qo‘llanilgan kompozitorlik texnikalarining o‘ziga xos tashkil etilishi, musiqiy materialning transformatsiyalanish jarayonini belgilovchi muhim omillari sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning qo‘llanilishi natijasida an’anaviy musiqiy material o‘zining dastlabki shakl va funksiyasidan farqli ravishda yangi tembr, faktura, dinamika va ijrochilik sharoitida qayta talqin etiladi.

Asarning umumiy orkestr tarkibi quyidagicha:

Flute, Oboe, Clarinet in B, Bassoon, Snare Drum, Triangle, Bass drum, Cymbals, Tam-tam, Tambourine, Wood block, Doyra, Harpsichord, Piano, Nay solo, Violin solo, Violoncello solo, Violin I, Violin II, Viola, Violoncello, Contrabass.


Ta’kidlab o‘tganimizdek, asarning barcha qismlari umumiy Dugoh lad negiziga asoslangan bo‘lsa-da, mazkur lad materiali har bir qismda turli balandlik, ritm, sur’at, faktura va tembr sharoitida namoyon bo‘ladi. Demak, bu yerda transformatsiya birgina kuy yo‘lining o‘zgarishi bilan emas, balki, musiqiy materialning turli kompozitsion parametrlar bo‘yicha qayta talqin qilinishi orqali yuzaga keladi.

Dugoh maqomining umumiy tovushqatori:




I qism Saraxbori Dugoh. Ma'lumki, Shashmaqom Nasr bo'limining birinchi guruh sho''balariga – Saraxborlar , Talqinlar, Nasrlar va ularning taronalari hamda Ufarlar kiradi. Odatda, har bir maqomning ashula bo'limi Saraxbor deb ataladigan sho''balar bilan boshlanadi. Shu bois, Saraxbori Dugoh (*namudi Dugoh*) ushbu qismning asosiy mavzui sifatida tanlab olingan hamda muallif tomonidan I qismni Saraxbor deb nomlanishi, tinglovchida asarning «ilk boshlanish» ruhini paydo qilishi bilan bog'liqdir.

Mazkur qismning lad negizi *d-e-fis-g-a-h-cis* tovushqatoriga asoslangan. Dastlab, Saraxbori Dugohning asosiy intonatsion birligi bo'lgan *d-e-fis* – nay solo tomonidan bayon etilib, keyinchalik, goboyda boshqa registrda takrorlanadi:




Mazkur holatni **tembr transformatsiyasi** sifatida baholash mumkin. Negaki, bu jarayonda intonatsion asos saqlanadi, biroq, uning tembr-funksional maqomi o'zgaradi, ya'ni, boshlang'ich intonatsiyaning bir cholg'udan boshqa cholg'uga o'tishi va takrorlanishi orqali qayta namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, skripka solo partiyasida *pizz.* ijro uslubi orqali ud cholg'usi yangrashiga yaqinlashuvi ham transformatsiyaning boshqa ko'rinishini yuzaga keltiradi:



Transformatsiyaning yanada aniq ko'rinishi **II qism Ufori Mushkiloti Dugoh**da kuzatiladi. Mazkur qism *g-a-h-c* tovushqatori asosidagi materialga tayanadi.

Ufor usuliga xos ritmik harakat dastlab, doyra cholg‘usi orqali berilsa, keyinchalik, ayni ritmik impuls torli cholg‘ularda *ricochet, pizz.* va *Bartok pizz.* kabi ijro uslublari yordamida qayta talqin qilinadi:




Bu jarayonda transformatsiyaning muhim belgisi – **ritmik funksiyaning saqlanishi**, uning ifoda vositasining esa o‘zgarishidir. Ya’ni, doyra orqali ifodalangan usul pulsatsiyasi torli cholg‘ularda boshqa ijro texnikalari yordamida qayta yaratiladi. Shu tariqa, bir xil ritmik mazmun turli tembr va fakturaviy sharoitlarda namoyon bo‘ladi.

Ufori Mushkiloti Dugoh qismida xona va bozgo‘y munosabati ham transformatsion jarayonni tashkil etuvchi asosiy mezonlardandir. Xona materialining turli cholg‘ular va registrlarga ko‘chirilishi, qisqartirilishi hamda ritmik-fakturaviy jihatdan o‘zgartirilishi, uning har safar yangi kompozitsion vazifada namoyon bo‘lishini ta’minlaydi.


Shu jihatdan, bu yerda transformatsiya faqat materialning o‘zgarishini emas, balki, uning funksional maqomi o‘zgarishini ham belgilaydi. Dastlab, alohida rivojlantirilgan xona va bozgo‘y, kulminatsiyada mustaqil birliklar sifatida emas, balki, yagona kontrapunktli qatlamning tarkibiy elementlari sifatida namoyon bo‘ladi.

III qism Husayniy Dugoh – asardagi **tembr-fakturaviy** transformatsion jarayonni yanada yaqqol ko‘rsatadi. Mazkur qism *h-c-d-es* tovushqatoriga asoslangan bo‘lib, mavzu dastlab violonchel guruhida bayon qilinadi. Keyingi rivojda, ayni tematika fortepiano partiyasiga o‘tib, tokkata xarakteridagi faktura orqali qayta talqin qilinadi:




Bu holatda boshlang‘ich materialning kuy-intonatsion belgilari saqlanadi, biroq, uning tembr, faktura va funksiyasi o‘zgaradi. Violoncheldagi mavzu ekspressiv va dramatik xarakterga ega bo‘lsa-da, fortepianoda u harakatchan, motorik fakturani hosil qiladi. Shunday qilib, mazkur qismda bir xil material ikki xil kompozitsion vazifani bajaradi.

IV qism Tasnifi Dugoh – transformatsiyaning yanada keskin shaklini namoyon etadi. An’anaviy Tasnifi Dugoh vazmin xarakterga ega bo‘lsa, asarda uning materiali *ritmico, percussivo* xarakterida, faol va tez sur’atda talqin qilinadi. Mazkur qismda faqat nay va urma-zarbli cholg‘ular, shu jumladan, doyra, kichik baraban, uchburchak, katta baraban, tamburin va wood block qo‘llanilgan:



Bu yerda transformatsiya – maqom materialining funksional qayta tashkil etilishi darajasiga chiqadi. Ya’ni, dastlab kuychan va vazmin xarakterga ega bo‘lgan material yangi kompozitsion kontekstda ritmik-perkussiv harakatga aylanadi. Natijada, uning musiqiy mazmuni yangi temp, artikulyatsiya va tembr sharoitida qayta namoyon bo‘ladi:



Shu bilan, sikldagi umumlashtiruvchi transformatsion jarayonning eng yuqori bosqichi **V qism Qachqarchai Mo‘g‘ulchai Dugoh**da kuzatiladi. Finalda avvalgi qismlarda qo‘llanilgan Saraxbori Dugoh, Ufori Mushkiloti Dugoh, Husayniy Dugoh, Tasnifi Dugoh va Qashqarchai Mo‘g‘ulchai Dugoh materiallari bir vaqtning o‘zida turli cholg‘u guruhlari va yakkaxon partiyalarida mujassamlashadi. Har bir mavzuning alohida tembr va fakturaviy qatlamda berilishi *politematik* rivojlanishni yuzaga keltiradi. Yakkaxonlar va orkestr guruhlari o‘rtasidagi navbatma-navbat bayon hamda birgalikdagi tutti epizodlari orqali dramaturgik taranglik bosqichma-bosqich kuchayib boradi.

Finalning asosiy mavzusi bo‘lgan Qashqarchai Mo‘g‘ulchai Dugohning ikki jumlali mavzusi *g-a-h-c-d-e-es-f* tovushqatoriga asoslangan. Birinchi jumla, nay solo tomonidan bayon qilinib, violonchel solo tomonidan o‘zgartirilgan variantda takrorlanadi hamda ikkinchi jumla esa, skripka solo partiyasida namoyon bo‘ladi. Keyinchalik, mazkur jumlalar turli solo partiyalarida kontrapunkt ko‘rinishida birlashadi:



Shunday qilib, finalda transformatsiya alohida kuy-intonatsiyalarning o‘zgarishidan ko‘ra, butun sikl davomida shakllangan tematikaning yangi polifonik-fakturaviy tizimda qayta tashkil etilishi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.

Mazkur asar Shashmaqomning Dugoh yo‘llari Yevropa Barokko janrining shakliy tamoyillari bilan uyg‘unlashtirilib, milliy va zamonaviy kompozitorlik tafakkurining sintezi asosida yuzaga keldi. Natijada, asar maqom an’analari va

concerto grosso janrining zamonaviy talqindagi yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Asarni transformatsion jarayon nuqtai nazaridan tahlil qilar ekanmiz, yuqorida ko‘rib chiqilgan bosqichlarni muayyan ketma-ketlik asosida umumlashtirish maqsadga muvofiqdir. Dastlab, maqom materialini tanlash, uni kompozitor tafakkurida qayta tashkil etish, so‘ng parametrlarning ma’lum darajalarda o‘zgarishi va yangi funksional holatga o‘tishi, yakunda esa yangi kompozitsion yaxlitlikka erishishdir. Shu jihatdan, mazkur asar transformatsiya jarayonida maqom materialini zamonaviy kompozitsion tizimga moslashtirishning muhim ko‘rinishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lishini isbotladi.

Shunday qilib, kompozitor maqom materialini aynan takrorlashdan ko‘ra, uning muayyan strukturaviy va intonatsion xususiyatlarini ajratib olishni, uni yangi ritmik, tembr, fakturaviy ko‘rinish va ijrochilik sharoitida rivojlantirishni afzal ko‘radi. Bu jarayonda esa, dastlabki material bilan yangi musiqiy holat o‘rtasidagi o‘zaro uzviylikni saqlagan holda, individual kompozitorlik tafakkuriga tayanib, yangi badiiy-kompozitsion yaxlitlikni yaratishga muvaffaq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi «O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida»gi PQ 3391-son qarori.
2. Rajabov I. Maqomlar. -T.: San’at, 2006. - 403 b.
3. Abrarova M. Zamonaviy musiqa ijodiyoti muammolari o‘zbek kompozitorlik tafakkuri nigohida. // Musiqa. -T.: 2025, 2-soni. -7-10 b.
4. Аль-Фараби Абу Наср. Трактаты о музыке и поэзии. - Алматы: Гылым, 1993.
5. Lewin D. Generalized Musical Intervals and Transformations. New Haven: Yale University Press, 1987. -312 p.
6. Fakhridinova D. Partitura. Concerto grosso (Shashmaqomning Dugoh maqomi asosida). -T: 2026. -120 b.

References

1. Decree No. PQ 3391 of the President of the Republic of Uzbekistan, dated November 17, 2017, «On Measures for Further Development of Uzbek National Maqam Art».
2. Rajabov I. *Maqomlar* [Maqams] -T.: San’at, 2006. - 403 p.

3. Abrarova M. *Zamonaviy musiqa ijodiyoti muammolari o‘zbek kompozitorlik tafakkuri nigohida* [Problems of Contemporary Musical Creativity from the Perspective of Uzbek Compositional Thinking]. // Musiqa. -T.: 2025, Vol 2. -7-10 p.
4. Al-Farabi Aby Nasr. *Traktaty o muzyke i poezii* [Treatises on Music and Poetry] - Almaty: Gylym, 1993.
5. Lewin D. Generalized Musical Intervals and Transformations. New Haven: Yale University Press, 1987. -312 p.
6. Fakhridinova D. Partiture. Concerto grosso (Based on the Dugoh Maqam of the Shashmaqam). -T: 2026. -120 p.